

Qadriyatlar va harbiy faoliyat

*Toshkent oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik bilim yurti
Harbiy psixologiya kafedrası boshlig‘i VVB, podpolkovnik R.T.Normatov,
katta o‘qituvchi, f.f.n.M.Q.Normurodova*

Annotatsiya: maqolada harbiy faoliyatda qadriyatlarning mohiyati, uning harbiy xizmatchi kamolotidagi ahamiyati yoritilgan.

Tayanch tushunchalar: qadriyat, harbiy faoliyat, qadriyat–ehtiyotlar, qadriyat-manfaatlar, qadriyat-maqсадlar, qadriyat-vositalar, qadriyat-natijalar.

Annotatsiya: в state rassmatrivayutsya sushnost sennostey v voennoy deyatelnosti, ix znachenie v duxovnom razvitii voennoslujashego.

Tayanch tushunchalar: sennost, voennaya deyatelnost, sennosti-potrebnosti, sennosti-interesi, sennosti-seli, sennosti-sredstva, sennosti-rezultati.

Qadriyatlar olami xilma xil va benihoyat ko‘pdir. Inson qadriyatlar olamida yashaydi, u yoki bu qadriyatlar tizimini qabul qiladi yoki rad etadi, uni individual hayot sharoitlariga moslashtiradi, o‘zgartiradi, zamonaviylashtiradi. U o‘zida va atrofida ko‘plab qadriyat mo‘ljallarini topadi. Aytish mumkinki, qadriyatlar shaxsning hayot yo‘lini ifodalaydi. Qadriyat - bu insoniyat butun hayoti davomida intiluvchi asosiy ezigulik, baxt-saodat, eson-omonlikdir. Qadriyat - barcha xatti-harakatlarning pirovardida asosidir. Darhaqiqat, qadriyat “u yoki bu faoliyat nima uchun kerak?” savoliga javob berish orqali aniqlanadi. Nemis faylasufi Immanuel Kant: “O‘z faoliyatini tahlil qilmay va axloq me‘yorlariga rioya qilmay turib, o‘zidan zavqlanadigan kishining hayoti qadr-qimmatga ega emas”, deb bejiz ta’kidlab o‘tmagan.

Harbiy faoliyat tushunchasi qadriyat sifatida insonning tabiiy va ijtimoiy faolligining mazmuni bilan belgilanadi va davlat xavfsizligining, fuqarolar erkinligining, ijtimoiy munosabatlar adolatliligining kafolatini ta’minlash zaruriyatidan kelib chiqadi. Natijada harbiy faoliyat harbiy xizmatchi ongida mustahkam o‘rin olib, yanada ko‘plab moddiy va ma’naviy xususiyatga ega qadriyatlar bilan to‘ldiriladi. Ayni paytda, harbiy faoliyatning o‘zi ham shaxs kamolotini yuksaltirish va uning qadrlash mezonlarini boyitishning samarali vositasi hisoblanadi.

Harbiy faoliyatda qadriyatlar muammosi faoliyat mohiyatidan kelib chiqadi. U nafaqat harbiy-professional soha (bevosita qurol-yarog‘ va jangovar texnikalar, qurolli kurash usullari va yo‘llari, jangovar malakani oshirishni o‘zlashtirish va foydalanish) bilan, balki harbiy xizmatchining ijtimoiy, siyosiy, harbiy-huquqiy, ma’naviy, ijtimoiy-maishiy soha faoliyati bilan ham bog‘liqdir. Ya’ni, faoliyat

doimo qadriyatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, harbiy burch, harbiy sha'n, mas'uliyat, himoya qilish, erkinlik, hushyorlik, adolatlilik kabi qadriyatlar shaxs ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaliy faoliyati davomida harbiy xizmatchi ongida aks etadi va ushbu jarayonda amalga oshadi. Shu tarzda sub'ektning hayot maydonida uchragan har qanday predmetga nisbatan qadriyatli munosabat yuzaga keladi. Bu esa predmetni baholashning dastlabki elementi hisoblanadi.

Qadriyatli munosabat o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiydir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, u harbiy xizmatchi ongini uning ehtiyoj va manfaatlari prizmasi orqali ob'ektga bo'lgan munosabatini belgilab beradi.

Ma'lumki, qadriyatlar faoliyatdan tashqari bo'lmaydi. Negaki inson o'z mehnati, o'z xatti-harakatlari bilan qadriyatlarni yaratadi. O'z navbatida qadriyatlarning mohiyati ham ularning faoliyat olamida amalga oshish qobiliyatida ko'rinadi.

Harbiy faoliyat ijtimoiy amaliyot bilan bog'liq bo'lib, yaxlit holda qadriyatlar va me'yorlar tizimi bilan boshqariladi. Harbiy faoliyat tarixiy rivojlanishning muayyan bosqichida fuqarolarning erkinligi, hayotining xavfsizligi, ijtimoiy munosabatlarning adolatliligi va harbiy xizmatchi shaxsining rivojlanib borishini ta'minlash usuli sifatida vujudga keladi. Harbiy faoliyatning eng muhim xususiyati shundaki, u nafaqat ijtimoiy hayot hodisalarini, balki moddiy va ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishdagi dialektik jarayonning eng yuqori darajasini ifodalaydi.

Harbiy faoliyatning unsurlari: faoliyat sub'ekti sifatida harbiy xizmatchi, faoliyat asosini belgilab beruvchi ularning ehtiyoj va manfaatlari; maqsadi, faoliyatning moddiy va ma'naviy vositalari; faoliyat ob'ekti va harbiylarning moddiy va ma'naviy kuchidan foydalanuvchi faoliyatning o'zi; faoliyat natijasi. Bunday paradigma nimaga qaratilgan? Avvalambor, inson ob'ektiv reallik bilan o'zaro ta'sirga kirishar ekan, o'zining maqsadga muvofiq faoliyatining oqibatlari haqida o'ylab ko'rishi kerakligini nazarda tutadi. Mohiyatan bunday faoliyat yaxlit bir butunlik sifatida ko'riladi va o'zining asosi bilan qadrlash darajalarida o'z aksini topadi.

Harbiy faoliyatdagi qadriyatlar manbai ushbu soha uchun ishlab chiqilgan nazariyalar, yondashuvlar, tamoyillardan kelib chiqadi, hamda qadriyat-ehtiyojlar, qadriyat-manfaatlar, qadriyat-maqsadlar, qadriyat-vositalar, qadriyat-natijalar majmuasida namoyon bo'ladi. Demak, faoliyatning manbai insonni ehtiyoj va manfaatlardan kelib chiqadi. Ushbu yondashuvga ko'ra harbiy faoliyatning qadriyatlar manbai quyidagi unsurlarni o'z ichiga oladi: a) qadriyat-ehtiyojlar (*xavfsizlik, erkinlik, adolatlilik, ijod, muhabbat*); b) qadriyat-manfaatlar (*ijtimoiy va shaxsiy ideallar*); v) qadriyat-maqsadlar (*ijtimoiy va individual manfaatlar*); g) qadriyat-vositalar (*iroda, bilim, mehnat, mahorat*); d) qadriyat-natija (*maqsadni amalga oshirish*).

Qadriyat-ehtiyojlar. Inson o'z ehtiyojlarini faoliyat orqali qondiradi. Faoliyat - tashqi dunyoni va insonning o'zini o'zgartirishga qaratilgan, ehtiyojlar asosida paydo bo'ladigan, insoniyat tomonidan ongli ravishda boshqariladigan

faollikdir¹. Ehtiyoj – inson faoliyatining asosi bo‘lib, keng ma’noda harakatdagi har qanday sub’ektning ma’lum zaruriyatidir. “Ehtiyoj” har qanday hayot faoliyatining ichki stimulidir. Bir vaqtning o‘zida bu organizmning ob’ektga munosabati, sub’ektning o‘z borlig‘iga ta’sir etishning zaruriy shartidir.

Harbiy xizmatchida qadriyat-ehtiyojlarni yuzaga kelishiga harbiy faoliyatning tabiati ta’sir etadi. Qadriyat-ehtiyojlar maqsadga muvofiq faoliyat bilan bog‘liqdir. Bunda asosan moddiy va ma’naviy qadriyat-ehtiyojlar yuzaga keladi. Moddiy qadriyat-ehtiyojlarga: ovqatlanish, uxlash, harakatlanish kabilar bo‘lsa, ma’naviy qadriyat-ehtiyojlarga: himoya qilish, erkinlik, adolatlilik, bilim, ijod, muhabbat va h.k. kiradi.

Qadriyat-manfaatlar. Ehtiyojlarning manfaatlarga o‘zgarishi bilan harbiy faoliyat asoslari ham murakkablashadi. Ehtiyoj anglanganida manfaatga aylanadi. Manfaat - ehtiyojlarning sub’ektivlashishi natijasi bo‘lsa, faoliyat sub’ektining nimagadir qiziqishidir. Demak, ehtiyoj bevosita ob’ektga yo‘naltirilsa, manfaatlar shu ehtiyojlarni qondirish vositalarini o‘z ichiga oladi.

Manfaatlarning amalga oshirilishi Vatan himoyachisiga xos bo‘lgan ijtimoiy sifatlarni shakllantiradi. Bunda shaxsning o‘z mavqei, o‘z o‘rnini va erkinligini namoyon etuvchi faoliyat asoslari oldingi o‘ringa chiqadi. Bu kabi qadriyat-manfaatlar faol faoliyatga undovchi kuch bo‘lishi mumkin. Qadriyat-manfaatlar shaxsga, o‘z-o‘zini anglash tizimiga, shaxsiy va ijtimoiy ideallarga ta’sir qiladi. Ulsiz jasorat ham, ijtimoiy manfaatlarni tushunish ham, shaxsning chin ma’noda o‘zini namoyon qilishi ham bo‘lmaydi. Qadriyat-manfaatlarning amalga oshirilish jarayoni harbiylarda vatanparvarlik, yuksak mas’uliyat, vatanga sodiqlik, fidoyilik kabi qadriyat-sifatlarni shakllanishiga olib keladi.

Qadriyat-maqсад. Maqsad (*etalon, namuna*) – inson amaliy faoliyatining avvaldan o‘ylangan rejasi va natijasi, ya’ni “kelajak loyihasi”dir. Maqsad – faoliyat yo‘nalishini belgilab beruvchi omildir. Maqsad qo‘yish – faoliyatning ajralmas jihati sifatida namoyon bo‘lsa, faoliyatning maqsadi ehtiyoj va manfaatlar asosida shakllanadi. Maqsad asosida ideallar, qadriyatlarning bir butun tizimi vujudga keladiki, natijada harbiy faoliyat maqsadga muvofiq tabiatga ega bo‘ladi.

Harbiy xizmatchi u yoki bu xatti-harakatni amalga oshirish haqida qaror qabul qilar ekan, har safar qo‘yilgan “vazifaning mag‘izini” anglab oladi, ya’ni u yoki bu xatti-harakat qaysi maqsad asosida amalga oshiriladi? degan savolga javob topishga intiladi. Zero, qadriyat-maqсадlar inson ongining ijodiy tomonini aks ettiradi hamda voqelikning ob’ektiv shart-sharoitlari sub’ektning real imkoniyatlariga muvofiq kelishini ifodalaydi. Harbiy xizmatchi faoliyat maqsadini qadriyat sifatida, ularni amalga oshirilishini burch sifatida anglab, ongli faoliyatni namoyon etadi.

Qadriyat-vosita. Harbiy faoliyatda maqsadlar timsoli sifatida qadriyat-vositalardan biri iroda muhim ahamiyatga ega. Iroda – odamning ichki va tashqi intilishlari, imkoniyat va salohiyatini maqsad yo‘lida safarbar etish, qat’iyat bilan harakat qilish, sinov va mashaqqatlarni engib o‘tishga, har qanday sharoitda ham

¹Gomez M.V., Domashenko I.A. Atlas po psixologii. -M.: Prosveshение, 1982. –S. 83.

ruhiy muvozanatni saqlashga asos bo'ladigan ma'naviy fazilat². Iroda – bu o'zining faolligi tufayli juda ko'plab jarayonlarni yuza keltiruvchi qudratli ijodiy prinsip. Irodaga qudratli hayotiy quvvat mujassamlashgan. Biroq iroda kuchi o'z-o'zicha paydo bo'lmaydi, balki u qadriyatlar ierarxiyasi anglangan joyda mavjud bo'ladi. Harbiy faoliyatda davlat, jamiyat va shaxs erkinligi va xavfsizligini ta'minlash, o'z majburiyatlarini sifatli bajarish uchun iroda maqsadga erishish vositasi sifatida to'g'ridan to'g'ri bilim (axborot), mahorat (kasbiy), mehnat (xo'jalik, ro'zg'or) kabi qadriyat-vositalar bilan bog'liqdir. Harbiy faoliyat qadriyat-vosita hisoblanuvchi moddiy ob'ektlar – murakkab qurol-yarog' va jangovar texnikadan samarali foydalanish uchun tegishli intellektual qobiliyat, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishni talab qiladi. Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" kitobida iroda haqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: "Bu hayotda odam ba'zan o'zini yo'qotib qo'yadigan g'oyat murakkab muammolarga duch keladi. Keskin vaziyatdan chiqishning iloji yo'qdek tuyuladigan holatlar bor. Shunday paytda, ishda va hayotda, jamiyatda og'ir savollarga duch kelganda kim o'zining yo'lini yo'qotmasligi mumkin? O'ylaymanki, birinchi navbatda o'z kuchiga ishongan, ruhiy dunyosi, ma'naviy olami baquvvat bo'lgan odamgina bunday vaziyatdan yorug' yuz bilan chiqqa oladi. Ma'naviy boylik shunday paytda odamga katta kuch va madad beradi. Shu ma'noda, insonning ma'naviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib boradi, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Iroda – bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam o'ziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham o'z zimmasiga olishdan qo'rqmaydi. Shuning uchun ham yuksak irodali insonga suyanish mumkin. Bunday kishilar boshingizga biror-bir tashvish yoki muammo tushgudek bo'lsa, loqayd qarab turolmaydi. Hech ikkilanmasdan, yoningizda turib, qo'lidan kelgancha yordam berishga, qiyinchiliklarni siz bilan birgalikda engishga harakat qiladi"³.

Mahorat ham qadriyat-vosita sifatida bilimlar bilan bog'liqdir. Professional harbiy faqat muntazam ravishda o'qish va mashqlar orqali o'z mahoratini namoyon qila oladi. Biroq "professional" degani bu faoliyatning tayyor dasturlari o'rnatilgan retranslyator emas, chunki unda maksimal darajada ijodkorlik shakllangan bo'lishi kerak.

Mehnat qadriyat-vosita sifatida o'ziga xos o'zak hisoblanadi va uning atrofida barcha moddiy-ishlab chiqaruvchi sohalar aylanadi. Mehnat hamma zamonlarda mutafakkirlar tomonidan qadriyat deb e'tirof etilgan. Mehnat - ezgulikdir. Harbiy xizmatchining g'oyalari va maqsadlarini amalga oshirilishi bevosita mehnat bilan bog'liqdir.

Harbiy faoliyatning qadriyat manbaini anglashda ushbu faoliyatning natijasi qadriyat sifatida muhim rol o'ynaydi. Uning ahamiyati shundaki, u harbiy xizmatchiga o'z oldiga real maqsadni qo'yish uchun dastlabki nuqta hisoblanadi. Ma'lumki, real maqsad abstrakt maqsaddan farq qiladi, avvalambor, u aniq erishilgan, mavjud natijadan kelib chiqadi. Shu bois qadriyat-natija: birinchidan,

² Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati/ –T.: Nashriyot-matbaa, 2009. –B.223

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. –B.122-123.

maqsadni amalga oshirish sifatida, ikkinchidan, vositalarni takomillashtirish sifatida, uchinchidan, faoliyat dasturini to'g'rilab turish sifatida, to'rtinchidan, qadriyatlarni tizimlash sifatida namoyon bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, individning qadriyatlarni afzal ko'rishi uning faoliyatining sifati va samarasini jiddiy o'zgartiradi va boyitadi. Bir xil "vazifani" bajara turib, individlar mutlaqo turlicha o'lchov, turlicha "olam"larda yashashi mumkin. Negaki, odamlarning fe'l-atvori ularning o'z oldiga qanday maqsadlarni qo'yishlariga, ong va irodasiga bog'liq bo'ladi. Ayni bir xil sharoitda odamlarning hatti-harakati, hulqi turlicha bo'lishi mumkin. Ular fidokor yoki qo'rqqoq, olijanob yoki befahm, sahiy yoki ochko'z, mehnatsevar yoki tanbal, qat'iyatli yoki qat'iyatsiz va h.k. bo'lishlari mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, harbiy kasb insondan fidoiylilikni, yuksak ma'naviy va aniq hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishni, davlat manfaatlari yo'lida o'z jonini qurbon qilishni talab qiladi. Ofitser nafaqat o'zining shaxsiy hayot mazmuni haqidagi masalani tegishli tarzda hal eta oladigan, nafaqat o'zida ma'lum qadriyatlar tizimini ishlab chiqa oladigan, balki bo'ysinuvchilarida ham qadriyat mo'ljallarini shakllantira oladigan mahoratga ega bo'lishi, ya'ni shaxsiy tarkibda or-nomus, mardlik, vijdon, sadoqat, jasorat, sabr, shijoat, intizom, mas'uliyat kabi qadrlash me'yorlari to'g'ri tarbiyalangan bo'lishi kerak. Zero, har bir komandir unga ishonib topshirilgan shaxsiy tarkibni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida o'qitadi va tarbiyalaydi. U buni qanchalik samarali bajarsa, u boshqarayotgan harbiy jamoa shunchalik katta kuchga ega bo'ladi.